



# INTER EDUCATION

— G L O B A L & S T U D Y —

INSPIRATION FOR  
THE  
MODERN  
RESEARCHER

2025  
VOL.3. №5

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal  
Научно-теоретический и  
методический журнал  
Scientific-theoretical and  
methodological journal



2992-9024

ISSN

# INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal  
2025-yil, 3-tom, 5-son

BUXORO – 2025

Axrarov B.S.	Zarar yetkazuvchi dasturlar va ulardan himoyalanish vositalari" mavzusini tizimli yondashuv va mantiqiy sxemalar asosida o'qitish masalalari	171–184
Fotina O.V.	Masofadan o'qitishda pedagogning raqamli kompetensiyalari	185–198
Alchurazova N. B.	Ko'p tarmoqli maktabgacha talim tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning o'ziga xosligi	199–206
Qurbanova M.F., Kurbanov F.B.	Boshlang'ich ta'limgarajayonida STEAM yondashuvining zamonaviy pedagogik asoslari va uning o'quvchi rivojlanishiga ta'siri	207–212
Qilichev R. E.	Yada toshi	213–221
Quldosheva D.S.	Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etish: mazmuni va shakllari	222–229
Fayzullayeva L.S.	Umumiy o'rta ta'limgarablarida o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish pedagogik asoslari	230–238
Zakirova G.S.	Madaniyatlararo kommunikatsiyada salomlashishning pragmatik rolini qiyosiy tahlil qilish: ingliz va o'zbek tillari misolida	239–246
Daminova S.X.	Mustaqil ta'limgarablarining pedagogik-psixologik mohiyati va uning ta'limgarayonidagi ahamiyati	247–254
Kabulova Z. X.	Kompetensiyaviy yondashuv asosida oliy ta'limgarablarida ingliz tilini o'qitish metodikasi	255–260
Nurmetov X. S.	Umumiy o'rta ta'limgarablarida biologiya o'qituvchilari uchun ochiq axborot-ta'limgarab muhitini yaratish va foydalanish kompetensiyalarini takomillashtirish	261–269
Tadjibayeva R.O.	Pedagogik yondashuv asosida oilalarda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish muammosi	270–276
Xamrakulova B.A., Pilar Maria Escudero.	Til o'rganishda kommunikativ va pragmatik kompensatsiya strategiyalarining ahamiyati	277–284
Tojiboyeva G. R.	Boshlang'ich ta'limgarablarining kasbiy kompetentligini pedagogik diagnostika asosida baholash: 8 kompetensiyali model yondashuvni	285–291
Xusenov M. Z.	Oliy ta'limgarablarida kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishning zamonaviy metodikasi	292–299
Buronova G. Y., Halimova M. A.	Robototexnikani virtual o'qitish jarayonida interaktiv darslar, testlar, simulyatorlar va kichik loyihamalar uchun virtual platforma funksiyalarini yaratish	300–309
Sharipova G. Sh.	Umumiy o'rta ta'limgarablarida informatika va axborot texnologiyalarni o'qitishda interaktiv ta'limgarab platformasi	310–317
Rasulova Z. S.	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarini badiiy asarlar mutolaasiga jalb etish masalalari	318–322.

Original paper

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI  
PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA ASOSIDA BAHOLASH: 8 KOMPETENSIYALI  
MODEL YONDASHUVI



© G. R. Tojiboyeva<sup>1</sup>✉

<sup>1</sup>Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** zamonaviy pedagogik jarayonlarda o'qituvchining kasbiy kompetentligini aniqlash va baholash dolzarb masala hisoblanadi. Ta'lim sifati bevosita o'qituvchining bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlariga bog'liq. Shuning uchun pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentlikni baholash vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi.

**MAQSAD:** mazkur maqolaning maqsadi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tizimli tahlil qilish, uning tarkibiy qismlarini aniqlash va baholash mezonlari asosida samarali pedagogik diagnostika metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, kompetentlikning nazariy asoslari va mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilarning izlanishlari asosida zamonaviy ta'limda kasbiy rivojlanishni ta'minlovchi omillarni ochib berish ham maqolaning asosiy vazifalaridan biridir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot doirasida boshlang'ich sinfda faoliyat yurituvchi 50 nafar o'qituvchi ishtirokida pedagogik diagnostika o'tkazildi. Diagnostikada test sinovlari, anketalar, portfoliolar tahlili, kuzatuv va ekspert baholash metodlari qo'llanildi. Tojiboeva G.R. tomonidan taklif etilgan 8 kompetensiyali model asosida indikatorlar tizimi ishlab chiqildi va baholash uch darajada (yuqori, o'rta, past) amalga oshirildi. Kompetentlikni aniqlashda nazariy bilimlar, metodik malaka, texnologik savodxonlik, refleksiya va kommunikativ qobiliyatlar asosiy mezon sifatida baholandи.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** O'TKAZILGAN diagnostika natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 40 foizi yuqori, 48 foizi o'rta va 12 foizi past darajada kompetentlikka ega ekani aniqlandi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, pedagogik kompetentlikning shakllanishi ko'p jihatdan innovatsion yondashuvlar, texnologiyalardan foydalanish darajasi va o'z faoliyatini refleksiya qilish qobiliyatiga bog'liq. Diagnostika natijalariga tayangan holda o'qituvchilarning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash maqsadida individual malaka oshirish kurslari va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

**XULOSA:** kasbiy kompetentlikning pedagogik diagnostikasi o'qituvchilarning professional o'sishida muhim vosita hisoblanadi. 8 kompetensiyali model asosidagi baholash matriksasi tizimli va obyektiv baholash imkonini beradi. Diagnostika natijalarini pedagogik jarayonni samarali boshqarish va takomillashtirish uchun asos bo'ladi.

Kelgusida pedagogik diagnostika metodlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, digital texnologiyalarni keng qo'llash tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** baholash, o'qituvchi, ilmiy yondashuvlar. metodlar, kasbiy kompetentlik, pedagogik diagnostika, baholash matriksasi, boshlang'ich ta'lif, kompetensiyalar, diagnostika metodlari.

**Iqtibos uchun:** Tojiboeva G. R. Boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini pedagogik diagnostika asosida baholash: 8 kompetensiyali model yondashuvi. // Inter education & global study. 2025, №5. B.285–291.

---

## ОЦЕНКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ: 8 МОДЕЛЬ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПОДХОДА

---

© Г. Р. Тоджибоева<sup>1✉</sup>

<sup>1</sup> Чирчикский государственный педагогический университет, Чирчик, Узбекистан

---

### Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в современных педагогических процессах определение и оценка профессиональной компетентности учителя является актуальной задачей. Качество образования напрямую связано с знаниями, умениями и личностными качествами педагога. Поэтому разработка и совершенствование инструментов оценки профессиональной компетентности является одним из важных направлений системы образования.

**ЦЕЛЬ:** цель данной статьи — системный анализ профессиональной компетентности учителей, определение её составляющих и разработка эффективных методов педагогической диагностики на основе критерииов оценки. Также одной из основных задач является раскрытие факторов, обеспечивающих профессиональное развитие в современной системе образования, на основе теоретических основ и исследований отечественных и зарубежных ученых.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в рамках исследования была проведена педагогическая диагностика с участием 50 учителей начальных классов. В диагностике использовались тесты, анкеты, анализ портфолио, наблюдение и экспертная оценка. На основе предложенной Г.Р. Тожибоевой модели из 8 компетенций была разработана система индикаторов, а оценка проводилась по трёхуровневой шкале (высокий, средний, низкий). В качестве основных критериев оценки компетентности были определены: теоретические знания, методическая подготовка, технологическая грамотность, рефлексия и коммуникативные способности.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** согласно результатам диагностики, 40% участников показали высокий уровень компетентности, 48% — средний и 12% — низкий. Исследование показало, что формирование педагогической компетентности во многом зависит от инновационных подходов, уровня использования технологий и



способности к рефлексии своей деятельности. На основе результатов диагностики были разработаны индивидуальные курсы повышения квалификации и методические рекомендации для поддержки профессионального роста учителей.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** педагогическая диагностика профессиональной компетентности является важным инструментом профессионального развития учителей. Оценочная матрица, основанная на модели из 8 компетенций, обеспечивает системную и объективную оценку. Результаты диагностики служат основой для эффективного управления и совершенствования педагогического процесса. В будущем рекомендуется дальнейшее совершенствование методов педагогической диагностики и широкое использование цифровых технологий.

**Ключевые слова:** оценка, учитель, научные подходы, методы, профессиональная компетентность, педагогическая диагностика, матрица оценки, начальное образование, компетенции, методы диагностики.

**Для цитирования:** Тоджибоева Г. Р. Оценка профессиональной компетентности учителей начального образования на основе педагогической диагностики: 8 модель компетентности подхода // Inter education & global study. 2025, №5. С. 285–291.

---

## EVALUATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PRIMARY EDUCATION TEACHERS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS: 8 COMPETENCY MODEL APPROACH

---

© Gulmira R. Tojiboeva<sup>1✉</sup>

<sup>1</sup>Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan

---

### Annotation

**INTRODUCTION:** in modern pedagogical processes, identifying and evaluating teachers' professional competence is a pressing issue. The quality of education is directly related to the teacher's knowledge, skills, and personal attributes. Therefore, developing and improving tools for assessing professional competence is one of the key directions of the education system.

**AIM:** the aim of this article is to conduct a systematic analysis of teachers' professional competence, determine its components, and develop effective pedagogical diagnostic methods based on evaluation criteria. Additionally, the article seeks to reveal the factors ensuring professional development in modern education, grounded in theoretical foundations and the research of both local and international scholars.

**MATERIALS AND METHODS:** within the framework of the study, pedagogical diagnostics were conducted with the participation of 50 primary school teachers. The diagnostics involved testing, surveys, portfolio analysis, observation, and expert evaluation methods. Based on the 8-competency model proposed by G.R. Tojiboeva, a system of indicators was developed and the assessment was carried out on three levels (high,

medium, low). The main criteria for evaluating competence included theoretical knowledge, methodological skills, technological literacy, reflection, and communication abilities.

**DISCUSSION AND RESULTS:** according to the diagnostic results, 40% of the participants demonstrated a high level of competence, 48% — medium, and 12% — low. The study showed that the formation of pedagogical competence largely depends on innovative approaches, the degree of technology integration, and the ability to reflect on one's professional activities. Based on the results, individual professional development courses and methodological recommendations were developed to support teachers' professional growth.

**CONCLUSION** pedagogical diagnostics of professional competence is an important tool for teachers' professional development. The assessment matrix based on the 8-competency model allows for systematic and objective evaluation. The diagnostic results provide a foundation for effective management and improvement of the pedagogical process. It is recommended to further refine diagnostic methods and widely apply digital technologies.

**Keywords:** assessment, teacher, scientific approaches. methods, professional competence, pedagogical diagnostics, assessment matrix, primary education, competencies, diagnostic methods.

**For citation:** Gulmira R. Tojiboeva. (2025) 'Evaluation of professional competence of primary education teachers on the basis of pedagogical diagnostics: 8 competency model approach', Inter education & global study, (5), pp. 285–291. (In Uzbek).

**K**asbiy kompetentlikni baholashda zamonaviy yondashuvlar — bu nafaqat testlar, balki kuzatuv, portfoliolar, refleksiya va faoliyat tahliliga asoslangan kompleks tizimdir. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning qarashlarini o'rganish, milliy ta'lif tizimiga mos metodikalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish va baholashda tizimli yondashuv zarur. O'qituvchilarni doimiy ravishda diagnostikadan o'tkazish, individual rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash, metodik ko'mak ko'rsatish — bu ta'lif sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### Tavsiyalar:

- Har bir mакtabda o'qituvchi portfoliolarini yuritish tizimini joriy etish;
- Diagnostika asosida malaka oshirish kurslarini moslashtirish;
- Yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha treninglar tashkil etish.

#### ***Kasbiy kompetentlik tushunchasi va uning tarkibiy qismlari***

Kasbiy kompetentlik – bu o'qituvchining o'z mutaxassisligi bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, shuningdek, bu bilimlarni o'quv jarayonida samarali qo'llay olishi bilan tavsiflanadi.

Pedagogik kompetentlik quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

- Metodik kompetentlik – fan bo'yicha dars mazmunini loyihalashtirish, interfaol metodlarni qo'llay olish, darslarni tizimli tashkil eta olish.
- Kommunikativ kompetentlik – o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish, psixologik yondashuvlar, muomala madaniyatini namoyon etish.
- Ijtimoiy-psixologik kompetentlik – o'quv jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish, ularga mos yondashuvni tanlash, shaxsga yo'naltirilgan ta'limga tashkil etish.
- Texnologik kompetentlik – zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) vositalaridan foydalanish, ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish.

### **Nazariy asoslar va ilgari olib borilgan tadqiqotlar**

#### **Mahalliy olimlar tadqiqotlari**

O'zbekistonlik bir qator olimlar ushbu yo'nalishda samarali ilmiy izlanishlar olib borgan:

- Axunova N.X. – kasbiy kompetentlikni baholash metodikasi, pedagogik baholash vositalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqqan.
- Tojiboeva G.R. – boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari kompetentligini rivojlantirish, metodik tayyorgarlik va muloqot madaniyati diagnostikasiga oid tadqiqotlar muallifi.
- Shodmonova S.S. – zamonaviy o'qituvchining kasbiy portretini chizish, refleksiya va shaxsiy yondashuvga asoslangan diagnostika metodlarini taklif qilgan.
- Qodirova M.M. – kasbiy o'sish va uzluksiz ta'lim doirasida kompetentligini shakllantirish muammolari ustida ishlagan.

#### **Xorijiy olimlar izlanishlari**

Xalqaro miqyosda kasbiy kompetentlik va pedagogik diagnostika bo'yicha quydagi olimlar e'tirofga sazovor:

- V.V. Serikov (Rossiya) – o'qituvchining kasbiy pozitsiyasi va pedagogik faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqqan.
- E. Zeer (Rossiya) – kasbiy o'zlik, psixologik tayyorgarlik va kasbiy kompetentlik o'rtaсидаги bog'liqlikni chuqur o'rganib chiqqan.
- Sh. Shrayberg (Rossiya) – AKT sohasidagi pedagogik kompetensiyalar diagnostikasiga bag'ishlangan ishlari bilan tanilgan.
- Linda Darling-Hammond (AQSh) – o'qituvchilik sifati, baholash standartlari va reflektiv faoliyat asosida kompetentligini baholash bo'yicha xalqaro yetakchi ekspert.
- Philippe Perrenoud (Shveytsariya) – o'qituvchining kompetentlik modeli, ta'limga refleksiya va mustaqil faoliyatga asoslangan diagnostika yondashuvlarini ishlab chiqqan.

#### **Kasbiy kompetentlikni baholash zarurati**

O'qituvchining kasbiy kompetentligini aniqlash quydagi sabablarga ko'ra muhimdir:

1. O'qituvchining faoliyatini ob'ektiv baholash imkonini beradi;
2. Rivojlanishga muhtoj sohalarni aniqlaydi;
3. Malaka oshirish dasturlarini individuallashtirishga xizmat qiladi;
4. Ta'lim sifati monitoringi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **Pedagogik diagnostika vositalari va metodlari**



Pedagogik diagnostika — bu o'qituvchining kasbiy faoliyatini o'rganish, baholash va natijalarni tahlil qilish jarayonidir. Bu borada quyidagi metodlar keng qo'llaniladi:

- Test sinovlari – o'qituvchining nazariy bilim darajasini aniqlash.
- Anketalar va so'rovnomalari – o'qituvchining o'zini baholashi, kasbiy o'sish ehtiyojlarini aniqlash.
- Kuzatuv – o'quv jarayonini tahlil qilish, o'qituvchining o'zaro muloqotini baholash.
- Portfoliolar tahlili – o'qituvchining yutuqlari, ishlari, loyiha va metodik materiallari asosida kompetentligini aniqlash.
- Baholash varaqalari – ekspertlar tomonidan o'qituvchining faoliyatini tahlil qilish.

### Baholash mezonlari

Kasbiy kompetentligini aniqlashda quyidagi mezonlar asos bo'lib xizmat qiladi:

- Bilim darjası – fanga oid nazariy bilimlar.
- Metodik malaka – interfaol metodlarni qo'llay olish.
- Innovatsion yondashuv – yangilikka ochiqlik va texnologik savodxonlik.
- Refleksiya qobiliyati – o'z faoliyatini tahlil qilish, xulosa chiqarish.

Baholashda uch daraja belgilanadi: yuqori, o'rta va past.

### 8 kompetensiyali model va baholash matritsasi

Tojiboeva G.R. tomonidan ishlab chiqilgan 8 kompetensiyali model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Predmetli kompetentlik – fan bilimlarini chuqur bilish va amaliy qo'llash;
- Didaktik kompetentlik – o'quv jarayonini samarali tashkil qilish;
- Diagnostik kompetentlik – o'quv jarayonidagi muammolarni aniqlash va baholash;
- Menejerlik kompetentlik – ta'lim jarayonini boshqarish;
- Kreativ kompetentlik – yangiliklarni joriy qilish va ijodiy yondashuv;
- Texnologik kompetentlik – axborot-kommunikatsion texnologiyalarni samarali qo'llash;
- Kommunikativ kompetentlik – samarali muloqot va pedagogik hamkorlik;
- Refleksiv kompetentlik – o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish.

Baholash matritsasi ushbu kompetensiyalar bo'yicha indikatorlar tizimini o'z ichiga oladi va har bir komponent uchun baholash mezonlarini aniqlaydi (yuqori, o'rta, past).

### Pedagogik diagnostika metodlari

Baholashda testlar, portfoliolar, so'rovnomalari, kuzatuv va ekspert baholash metodlari qo'llaniladi. Xususan, kommunikativ kompetentlikni o'lchash uchun ishlab chiqilgan test tizimi samarali vosita sifatida tan olingan.

### Tadqiqot natijalari

50 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari ustida o'tkazilgan diagnostika ko'rsatkichlari quyidagicha:

- Yuqori daraja – 40%;
- O'rta daraja – 48%;
- Past daraja – 12%.



Natijalar asosida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish yo'nalishlari aniqlanib, malaka oshirish kurslari taklif etildi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

Axunova N.X. Pedagogik kompetentlik va uning diagnostikasi. – Toshkent: Fan, 2020.

2. Karimova M., Tojiboeva G. Kasbiy malaka va kompetensiyalar. – Samarqand: Ta'lif, 2021.

3. OECD. Teachers and Leaders in Schools: Pedagogical Competency Frameworks. – 2019.

4. Shodmonova S.S. Zamonaviy o'qituvchi portreti. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2023.

2. Tojiboeva G.R. Boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarining kommunikativ kompetentligini o'lchash test tizimi. Toshkent, 2022.

3. Zeer E.F. Professional'noe razvitiye lichnosti. Moskva: Akademiya, 2012.

4. Serikov V.V. Lichnostno orientirovannoe obrazovanie. Moskva: Logos, 2004.

5. Darling-Hammond L. Teacher Education and the American Future. Journal of Teacher Education, 2006.

6. Perrenoud Ph. Ten new competencies for teaching. Geneva: IBE UNESCO, 2000.

### MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Tojiboeva Gulmira RIFOVNA**, PhD, dotsent, [Тоджибоева Гульмира Рифовна, Кандидат педагогических наук, доцент], [Tojiboeva Gulmira RIFOVNA, PhD, Associate Professor]; manzil: O'zbekiston, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy [адрес: Узбекистан, г. Чирчик, улица Амира Темура, дом 104], [address: Uzbekistan, 104 Amir Temur Street, Chirchiq city]